

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON MILLIY
ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOINT STOCK COMPANY
“NATIONAL ELECTRIC
GRID OF UZBEKISTAN”

BUYRUQ

2026-yil, 13-aprel

94-son

Toshkent shahri

“O‘zbekiston MET” AJda xaridlarni amalga oshirish tartib-taomillarini muvofiqlashtirish to‘g‘risida

“O‘zbekiston MET” AJ tomonidan xarid tartib-taomillarini amalga oshirishda xarid predmetining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xarid komissiyasini tuzish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda xarid tartib taomillarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son Farmoni (keyingi o‘rinda – Farmon) talablariga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

1.1 “O‘zbekiston MET” AJda xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bo‘yicha xarid komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Xarid komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

1.2. “O‘zbekiston MET” AJda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom)ning yangi tahriri 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasi a‘zolari:

2.1. xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va Farmon hamda Nizom talablariga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlasin;

2.2. zarur hollarda ekspertlarni (xulosa berish uchun maxsus bilimga ega bo‘lgan shaxslarni), shu jumladan, mutaxassis sifatida Jamiyat xodimlarini takliflarni ko‘rib chiqishda amaliy yordam ko‘rsatish uchun Xarid komissiyasi tarkibida ishtirok etish uchun jalb qilsin.

3. **Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati** Jamiyatning komplayens nazorat tizimi mustaqilligini ta‘minlash hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida Xarid komissiyasi tarkibiga kuzatuvchi maqomida, ovoz berish huquqisiz kiritilsin va unga quyidagi vakolatlar yuklatilsin:

3.1. xarid jarayonlarining qonunchilik va ichki lokal hujjatlarga muvofiqligini monitoring qilish;

3.2. xarid jarayonida manfaatlar to'qnashuvi alomatlari aniqlanganda komissiya raisini xabardor qilish va jarayonni to'xtatish bo'yicha taklif kiritish;

3.3. xarid bayonnomasiga xaridning shaffofligi yuzasidan alohida fikr yoki e'tirozlarni ilova qilish.

4. Jamiyat markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari va filiallar rahbarlari:

4.1. texnik topshiriqlarni umumlashtirish va Xarid komissiyasiga kiritish uchun zarur ehtiyojli tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning texnik topshiriqlarini belgilangan tartibda ishlab chiqib, to'liq ravishda Xaridlar-transformatsiya ofisiga kiritilsin;

4.2. Xarid komissiyasi tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish hamda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi (xizmat ko'rsatuvchi)lardan qabul qilib olish jarayonida murojaatlarni taqdim etuvchi tarkibiy bo'linmalardan tegishli mutaxassislar jalb qilinishini ta'minlasin.

5. Tegishli tarkibiy bo'linmalardan kelib tushgan texnik topshiriqlarga muvofiq tanlov jarayonini o'z vaqtida va sifatli tashkillashtirish hamda qabul qilingan takliflarni tegishliligiga ko'ra Xarid komissiyasiga to'liq yetkazish uchun Xaridlar-transformatsiya ofisi mas'ul ekanligi belgilansin.

6. **XTO** (Rasulov), **barcha filial direktorlari** to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzilganligi to'g'risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran besh ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishini ta'minlasin.

7. **Texnik topshiriqni ishlab chiqish uchun mas'ul tarkibiy bo'linma** Yuridik boshqarma, Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati, Buxgalteriya hisobi va hisobotlari boshqarmasi, Iqtisodiyot va rejalashtirish boshqarmasi, Xaridlar-transformatsiya ofisi bilan birgalikda uch kun muddatda shartnoma loyihasini ishlab chiqsin.

8. **Boshqaruv raisining o'rinbosari** (Yuldashev), **BH HB** (Xolboyev), **M POB** (Dustiyarov) to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborot belgilangan muddatda maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan taqdirda, ushbu shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmasin.

9. "O'zbekiston MET" AJning 2021-yil 4-avgustdagi 238-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

10. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimnamda qoldiraman.



Boshqaruv raisi

A. Nazirov

Tarqatilsin: IYXB, XTO, ETETEQD, TXD, BHHB, IRB, XMIB, KQB, MPOB, MT(K)X, RHAX, va barcha filiallarga.

Bajaruvchi: XTO. Tel:32-030